

“KOGNITIV DISONANSLIK VA QAROR QABUL QILISH
JARAYONI.”

Jo'rayeva Oydinoy Odiljon qizi

*University of economics and pedagogy, Ingliz tili yo'nalishi 2 bosqich
talabasi*

Kosimova Nargiza Dilmuratovna

*University of Economic and pedagogy, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
professori, p.f.n., dotsent.*

Annotasiya: Ushbu maqola kognitiv disonansning qaror qabul qilish jarayonidagi rolini o'rganadi. Festingerning nazariyasiga asoslanib, disonansning kelib chiqish sabablari, uni boshqarish strategiyalariva uning iqtisodiy, madaniy, hamda ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so'zlar: kognitiv dissonans, qaror qabul qilish, strartegiya, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy kontekst.

Cognitive dissonance and the decision making process.

Abstract: This article examines the role of cognitive dissonance in the decision-making process. Based on Festinger's theory, the causes of dissonance in economic, cultural, and social contexts are highlighted

Keywords: cognitive dissonance, decision making, strategy, social, cultural, social context.

Когнитивный диссонанс и процесс принятия решений.

Ключевые слова: когнитивный диссонанс, принятие решений, стратегия, экономический, культурный, социальный контекст

В данной статье рассматривается роль когнитивного диссонанса в процессе принятия решений. А также, на основе теории Фастингера выделены причины диссонанса, стратегии его управления, раскрыты его значение в экономических, культурных и социальных контекстах.

“Bizning asosiy maqsadimiz-ochiq va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish, odamlarning fikrini erkin ifoda etishiga sharoit yaratishdir.”

SH.Mirziyoyev

Kognitiv dissonans - bu insonning o'z e'tiqodlari, qadriyatlari yoki bilimlari o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan psixologik noqulaylik holati. Ushbu fenomen 1957-yilda Leon Festinger tomonidan nazariy asoslangan va shundan beri insonning qaror qabul qilish jarayonini tushunishda muhim o'rin tutib kelmoqda. Kognitiv disonans qaror qabul qilish jarayonida

yuzaga keladigon hissiy va kognitiv ziddiyatlarni o'rganish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Bugungi kunda qaror qabul qilishning murakkabligi va mas'uliyat darajasi ortib bormoqda. Buning sababi – axborot hajmining ko'pligi, ijtimoiy va iqtisodiy bosimlar, vaqtdan unumli foydalanish zaruriyati va professional darajada samarali qaror qabul qilishni takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Kognitiv dissonans shaxsning ikki yoki undan ortiq qarashlari, qadriyatlari yoki xatti-harakatlari o'rtasidagi muvofiqlikning buzilishi natijasida yuzaga keladigon ruhiy noqulaylik holati hisoblanadi.

Ushbu holatda inson;

1. Ziddiyatni bartaraf etishga intiladi.

2. Yangi ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldirish yoki talqin qilish orqali dissonansni kamaytirishga urinadi.

3. O'z e'tiqodlarini moslashtirish yoki o'zgartirish orqali dissonansdan qutulishga harakat qiladi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi hozirgi zamon jamiyati, ayniqsa, texnologik taraqqiyot va globalizatsiya sharoitida, insonlardan tezkor va to'g'ri qaror qabul qilishni talab etadi.

Kognitiv dissonans masalasi:

Shaxsiy qarorlar (masalan, ma'lum bir turmush tarzini tanlash);

Tashkiliy qarorlar (masalan, biznes boshqaruvi);

Ijtimoiy qarorlar (masalan, siyosiy tanlovlar) kabi keng qamrovli sohalarda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu mavzuni o'rganish insonning ongli ravishda o'z qarorlariga baho berish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalarning xatti-harakatlarini tushunishda yordam beradi.

Maqsad va muammolar bayoni : Maqsad bu-kognitiv dissonans va uning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sirini o'rganish, shuningdek, ushbu ziddiyatlarni samarali boshqarish usullarini aniqlash hisoblanadi.

Muammolar:

1. Kognitiv dissonansning qaror qabul qilish jarayonidagi rolini tushunishning yetarli emasligi.

2. Shaxs va guruhlar darajasida kognitiv dissonansni boshqarish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji.

3. Dissonansni kamaytirishning salbiy va ijobiy ta'sirlarini aniqlash.

Tahlil va muhokama (Discussion):

Tahlil va muhokama bo'limida tadqiqot natijalari chuqur tahlil qilinib, ular tegishli nazariyalar va konseptual asoslar bilan bog'lanadi. Bu jarayonda olingan natijalar boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslanadi va natijalar o'rtasidagi

moslik yoki farqlar ko'rsatiladi. Bundan tashqari , natijalar qanday kontekstda amaliy qo'llanilishi mumkinligi ham muhokama qilinadi.

Misol uchun biror kishi qimmat narxda telefonga pul sarflaganidan keyin , o'z harakatini oqlash uchun telfondan ortiqcha yaxshi fikrlar topishga harakat qilishini hisobga olishimiz mumkin.

Ijtimoiy tarafdin misol keltiradigon bo'lsak guruhda qabul qilingan qaror yoki fikrga qarshi munosabatda bo'lgan shaxs, keyinchalik guruh qarorini qabul qilishi mumkin bo'ladi, chunki guruhda o'zini qulayroq his qilishga harakat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu tadqiqot men uchun kognitiv dissonansning nazariy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Amaliy hayotda dissonansni boshqarish shaxsiy rivojlanishim va ijtimoiy muloqotlarimda muhim ahamiyat kasb etishini angladim. Ushbu tadqiqot kelajakdagi izlanishlar uchun menga yangi yo'nalishlar taklif qildi. Kognitiv dissonansning ta'siri chuqurroq o'rganib , uni turli sohalarda amaliy qo'llanib, uni turli sohalarda amaliy qo'llashni rejalashtirmoqdaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Festinger L. (1957). A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford University Press.
2. Cooper, J. (2007). Cognitive Dissonance: Fifty Years of a Classic Theory. Sage Publication.
3. Aronson, E. (1999). The Social Animal. Worth Publishers.
4. Thaler, R. H. & Sunstein, C. R. (2008) Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness. Penguin Books.
5. Eagly, A. H., & Chaiken, S. (1993). The Psychology of Attitudes. Harcourt Brace Jovanovich.

Ishtirokchining F.I.SH	Jo'rayeva Oydinoy Odiljon qizi
Sho'ba nomi	Kognitiv dissonans va qaror qabul qilish jarayoni
University of Economics and pedagogy	Talaba
Elektron manzil	Oydinoy.jorayeva169@gmail.com
Telfon raqami	+998 91 483 07 28